



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-oktyabr


RAQAMLAR:

- Xizmatlar sohasida 10,4 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda.
- 2018 yil yanvar-oktyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 4454,8 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1757,8 ming.so'mni tashkil etdi.

Zamonaviy jamiyat hayotida xizmatlar sohasi juda keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Bugungi kunda yoki bu turdagi xizmatlar ko'rsatmaydigan yoki hech bo'lmaganda unga duch kelmagan korxonalar deyarli qolmagan.


Hozirgi vaqtda viloytda 15,1 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan, xizmatlar sohasida 10,4 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning jami korxonalar va tashkilotlar sonidagi ulushi 68,5 % ni tashkil etdi.

2018 yil 1 noyabr holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2018 yil 1 noyabr holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar (34,8 %) yuqori ulushni egallaydi.

2018 yil 1 noyabr holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %



Yaqin va uzoq xorij davlatlari bilan o'zaro hamkorlikni kengaytirish, turizm sohasini jadal rivojlantirish yashash va ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilot sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi 10,2 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 6,7 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar ulushi 2,4 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,2 % ni tashkil etdi.


2018 yil yanvar-oktyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4454,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,2 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	4454,8	109,2
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	282,7	112,9
moliyaviy xizmatlar	527,8	145,5
transport xizmatlari	798,6	102,5
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	771,3	102,3
yashash va ovqatlanish xizmatlari	162,8	108,3
savdo xizmatlari	1834,9	104,8
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	134,9	103,0
ta'lim sohasidagi xizmatlar	123,2	122,3
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	48,5	112,4
ijara xizmatlari	118,7	120,3
kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	141,5	102,3
shaxsiy xizmatlar	146,0	102,7
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	31,9	100,0
boshqa xizmatlar	103,3	100,4

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlari hajmi (1834,9 miln. so'mga), transport xizmatlar (798,6 miln. so'm), moliyaviy xizmatlari (527,8 miln. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (282,7 trln.so'm), shaxsiy xizmatlar (146,0 miln.so'm) oshganligi kuzatildi.


2018 yil yanvar-oktyabr oylarida alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, %



Xizmatlar hajmining nisbatan sezilarli bo'lmagan holda oshishi sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo'yicha kuzatildi. Ularning hajmi 2017 yil yanvar-oktyabr oylariga nisbatan 9,8 miln.so'mga oshdi.

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (145,5 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (122,3 %), ijara xizmatlar (120,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (112,9 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (108,3 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari me'morchilik sohasidagi xizmatlar (100,0%), boshqa xizmatlar (100,4 %), kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlar (102,3 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlari sezilarli ulushni egallaydi. 2018 yil yanvar-oktyabr oylarida uning ulushi 41,2 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (17,9 %), moliyaviy xizmatlar (11,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,3 %) egallaydi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



Sog'liqni saqlash sohasidagi bo'yicha nisbatan yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan xizmatlar lekin ularning ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi arziyasiz (1,1 %) ni tashkil etadi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1757,8 ming.so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-oktyabr oylariga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 288,8 ming.so'mga oshdi.



Surxondaryo viloyati
Statistika boshqarmasi
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Mas'ul: P.Eshboeva
Tel: (71) 230-85-84